

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyatni to'g'ri tashkil etish

Imomova Muazzam Rafiqovna

University of Business and Sciens

nodavlat oliy ta'lim muassasasi o'qituvchisi

E-mail: imamovmuazzam@gmail.com Tel: +998 99 815 53 43

Muhammadova Muhlisa Farxodjon qizi, Tolipova Zahro Vohidjon qizi

University of Business and Science nodavlat

oliy ta'lim muassasasi talabalar

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlangan, jismonan sog'lom, aqlan yetuk va ma'naviy jixatdan shakllangan etib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelmoqda. Bu kabi vazifalarni amalga oshirishda albatta zamon talabiga mos keladigan Davlat talablarini yangi, qo'shimchalar kiritilgan variantini ishlab chiqish zarurati tug'ildi. Shulardan kelib chiqqan xolda, bir qator olim va tajribali amaliyotchilar ishtirokida ushbu davlat talablari yaratildi. Mazkur O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 29 dekabrdagi PQ-2707-son «2017 - 2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori hamda Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 21 noyabrdagi 929-son «O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomni xamda Maktabgacha ta'lim tashkilotlari raxbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash xaqida»gi qaroriga asosan ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni xar tomonlama rivojlantirish, ta'lim-tarbiya berish, maktab ta'limiga tayyorlash bo'yicha davlat talablarini belgilaydi.

Yaratilgan Davlat talablari ko'p jixatdan mavjud bo'lgan Davlat talablaridan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

keskin farq qiladi. Birinchidan, yangi turdag'i Davlat talablarining vazifalari takomillashtirilgan. Ikkinchidan, soxa va kichik soxalarida farq bor. Uchinchidan, Davlat talablari soxa va kichik soxa indikatorlariga o'zgartirishlar kiritilgan.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari bolalarning psixologik xususiyatlariga asoslangan xolda ta'lim - tarbiya jarayonini belgilab beradi. SHuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlaridan pedagogika va psixologiyaga oid bilimlarini yanada chuqurlashtirish talab etiladi.

- Bugungi maktab bolasidan aniq bilimlargina emas, fikrlash ko'nikmasi, kattalar va tengdosh o'rtoqlarini tushunish, ular bilan xamkorlik qilish xam talab etiladi. SHuning uchun bola maktabga qadam qo'yayotganida qanchalik bilimga ega ekanligi emas, balki uning yangi bilimlarni egallashga tayyorligi, atrof-olamga moslashishi ko'nikmasi, voqeа-xodisani mustaqil ravishda taxlil etishi va mustaqil xarakat qilishi muximroq xisoblanadi.

Bolani biror narsaga o'rgatishgina emas, unda o'z kuchiga ishonchni orttirish, o'z g'oyasini ximoya qilish, mustaqil ravishda bir qarorga kelish xamda unda "Men" kontseptsiyasini shakllantirish xam muximdir. Maktabgacha yoshdagi bolaning mакtab ta'limiga o'tishi xamisha uning xayoti, axloqi, qiziqishi va munosabatlarida jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. SHuning uchun maktabgacha yoshdagi bolani maktabgacha ta'lim tashkilotida yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, bolaning yosh xususiyatiga doir bilim, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishga yordam beradi.

Bolaning maktabga tayyorgarligi undagi idrok, kuzatish, xotira, tafakkurning rivojlanishi, vaqt va fazoviy tushunchalar olami, ijtimoiy xodisalar xaqidagi tasavvurlarning shakllanishi bilan belgilanadi. Soxalar kichik soxalarga bo'lingan va shu bilan birgalikda, ular bolaning me'yorda rivojlanish ko'rsatkichlarini aks ettiradi.

Mazkur **Davlat talablari** quyidagi ta'lim tashkilotlarida tatbik etiladi:

- davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari;
- maktabgacha yoshdagi guruxlari mavjud bo'lgan «Mexribonlik» uylari.

Davlat talablarining **maqsadi** — mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy isloxoatlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi xamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan xolda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nан mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdir.

Davlat talablarining **vazifalari** quyidagilar xisoblanadi:

- maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta'lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilash; milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish;
- ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish;
- kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlash.

Davlat talablari quyidagi **tamoyillar** asosida tatbik etiladi:

- bolaning noyobligi;
- «Men» kontseptsiyasi va shaxsiy ta'limini yaratishda bolaning faol ro'li;
- bolaning xuquqlarini ximoya qilish va ta'minlashning muximligi;
- bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning asosiy ro'li;
- bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli, xar bir bolaga moslashuvchan bo'lib, individual variativlik asosida yondashish.

Davlat talablari rivojlanish soxalari integratsiyasini ko'zda tutadi va bola rivojlanishiga ko'maklashadi.

Davlat talablari (ilk va maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanish kursatkichlari) bu-kichik yoshdagi bolalar rivojlanishining milliy tamoyillarini, tugilganidan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning bilim, ko'nikma va malakalari

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

mezonlarini aks ettiruvchi, kattalarga ularning o'sishlari dinamikasini, rivojlanishlari xolatini aniklashda yordam beruvchi xujjatdir.

Xulosa qilib aytganda Davlat talablari aniq bir yoshdagi bolaning rivojlanishini, bolaning yutuqlari va rivojlanish darajasini kuzatish imkoniyatini beruvchi indikatorlarni (ko'rsatkichlarni) belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent "O'zbekiston" 2007 y. - 39 b. . <https://constitution.uz/uz/clause/index>.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi O'RQ-637-son
3. Qonuni. Toshkent sh., 2020 yil 23 sentyabr. (*Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.09.2020 y., 03/20/637/1313-son*).
4. **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining** 2019 yil 31 dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli Qaroriga 1-ilova.
5. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni. *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son*. <https://lex.uz/docs/4646908>.
6. O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiysi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312- son Qaroriga 1-ilova.
7. **O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining** 2020 yil 22 dekabr. «Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to'g'risida»gi 802-sonli Qarori. "Umumiy tipdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida" Nizom. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 13 maydagi 391-sonli "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora tadbirlar to'g'risida"gi Qaroriga 1-ilova.
8. **Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining** 2020 yil 22

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

dekabr. «Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 802-sonli Qaroriga 1-ilova.

9. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi. Toshkent-2018 yil.

10.Qodirova F., Toshpo‘latova Sh., Kayumova N., A’zamova N. Maktabgacha pedagogika. Darslik. -T.: “Tafakkur”. 2019 y -684 b.

11.Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. To‘ldirilgan qayta nashr. –T.: TDPU, 2017 y.

12.Oila pedagogikasi. Mas’ul muharrir O.Hasanboeva. –T.: Aloqachi. 2007 y. -384

13.Imomova Muazzam Rafiqovna. (2023). INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA BOLALARINI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASHDA ZAMONAVIY YONDASHUV TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 20–

26. Retrieved from <http://web-journal.ru/index.php/journal/article/view/433>
journal.ru/index.php/journal/issue/view/14